XORAZM VILOYATI URGANCH SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2024-yil 23-sentabr | 546-12-180-Q/24 | Urganch shahar hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyulda “Byudjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-100-sonli Farmoni va bu yuzasidan viloyat hokimining 2024-yil 8-avgustdagi 320-12-0-Q/24-sonli qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyulda “Byudjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-100-sonli Farmoni va bu yuzasidan viloyat hokimining 2024-yil 8-avgustdagi 320-12-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta′minlash maqsadida

Qaror qilaman:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyulda “Byudjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-100-sonli Farmoni va bu yuzasidan viloyat hokimining 2024-yil 8-avgustdagi 320-12-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan:

2025-yil 1-yanvardan boshlab moliyaviy va boshqa xavflarning oldini olish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, vazirlik va idoralar, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yirik tashkilotlarda ularning birinchi rahbarlari boshchiligida kollegial asosda “Xavflarni boshqarish” qo‘mitalari tuzilishi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tuzilmasida hududiy soliq organlari xodimlari sonini maqbullashtirish hisobidan kamida 1-2 nafar xodimdan iborat ichki audit xizmatlari tashkil etilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga 5-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi ma’lumot uchun qabul qilinganligi;

- Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari M.Achilov, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (M.Iskandarov):

viloyat mahalliy byudjeti ijrosi to‘g‘risidagi yillik hisobotning tashqi auditi natijalari, shuningdek, Hisob palatasining xulosasi asosida kelgusi yil uchun byudjet loyihasini baholash ko‘rsatkichlarini belgilangan tartibda xalq deputatlari viloyat Kengashi muhokamasiga kiritilishini;

2025-yildan boshlab davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari hisobidan tuman (shahar)larga taqsimlangan mablag‘lar bo‘yicha ma’lumotlarni belgilangan tartibda xalq deputatlari viloyat Kengashiga taqdim etilishini;

byudjet dasturlarini (maqsadli indikatorlarni) ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy va boshqa xavflar ro‘yxatini, ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni hamda natijalari bo‘yicha choraklik axborotni belgilangan tartibda Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etib borilishini ta’minlashi;

- Xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati (A.Rajapov)ga:

davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari hisobidan tuman (shahar)larga taqsimlangan mablag‘lar bo‘yicha ma’lumotlarni xalq deputatlari viloyat Kengashi muhokamasida ko‘rib chiqishi;

bunda, davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalaridan ajratilayotgan mablag‘lar bo‘yicha so‘rov va nazoratni yo‘lga qo‘yish tavsiya etilgani;

- Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari M.Achilov, viloyat g‘aznachilik xizmati boshqarmasi (A.Matrizayev) nazoratni kuchaytirish va moliyaviy intizom buzilishining oldini olish bo‘yicha preventiv choralarni joriy etish maqsadida:

davlat xaridlari sohasida qonun buzilishi holatlari aniqlanganda, to‘lovlarni vaqtincha to‘xtatish (ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, shuningdek, qonunchilik hujjatlarida belgilangan kechiktirib bo‘lmaydigan xarajatlar bundan mustasno), shartnomani ro‘yxatdan o‘tkazmasdan qaytarish, uni bekor qilish va qonun buzilishi holatlari mavjudligi to‘g‘risida davlat buyurtmachisiga hamda davlat moliyaviy nazorati organlari yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabarnoma yuborilishini;

moliyaviy operatsiyalarning barcha jarayonlarida shubhali holatlar bo‘yicha Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining viloyat boshqarmasini uch ish kunida xabardor qilinishini;

ro‘yxatdan o‘tkazilgan shartnomalar bo‘yicha muddati o‘tgan debitor va kreditor qarzdorliklar hisobini yuritish hamda har chorak yakuni bo‘yicha keyingi oyning 10-sanasiga qadar o‘rnatilgan tartibda Hisob palatasi hamda Bosh prokuratura huzuridagiIqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining viloyat boshqarmasiga ma’lumot taqdim etib borilishini ta’minlashlari;

- Viloyat hokimining qarorlariga 1-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi;
- Viloyat boshqarmalari, tashkilotlari va idoralari rahbarlari o‘zlari qabul qilgan hujjatlarini ushbu qarorga muvofiqlashtirishlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishshahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari J.Eshchanov zimmasiga yuklansin.

Urganch shahar hokimi **B.Radjapov**

Urganch shahar hokimining
2024-yil 23-sentabrdagi
546-12-180-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Xorazm viloyat
hokimining 2024-
yil 8-avgustdagi
320-12-0-Q/24-son
qaroriga 1-ilova

Viloyat hokimining qaroriga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

1. Viloyat hokimining 2014-yil 13-martda “Mansabdor shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqish tartibini takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi 71q-sonli qarorida:

a) 1-ilovaning 18-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“18. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining raisi va uning o‘rinbosarlari”;

b) 3-ilovaning “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi apparati” bo‘limi quyidagi mazmundagi 1_1-band bilan to‘ldirilsin:

“1_1. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining boshqaruv, texnik va yordamchi xodimlari — O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi bilan kelishuvdan so‘ng”.